

QOBILIYATLI BOLALARNI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

Sindarova Laylo Bahodir qizi

*Samarqand viloyati Qòshrabot tumanidagi 48-umumiy òrta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada malakali pedagogik faoliyat orqali qobiliyatli bolalarni aniqlashga qaratilgan. Hozirgi rivojlanib borayotgan vaqtda har bir mamlakat o'zining kelajagini mustaxkamlashi va uni ertangi kunini o'ylashga majbur. Bizning mamlakatimizda ham yosh avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, istedotli va qobiliyatli yoshlarni faoliyat olib borishi uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratilgan, va barchga shart sharoitlar buning uchun yetarli.

Kalit so'zlar: psixologik, pedagogik, yoshlar, obilyat, muvaffaqiyat, individual, shaxs, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik.

KIRISH

Kasbiy va mehnat faoliyati vaqtning asosiy qismini egallaydi va inson o'zini shaxs sifatida anglashga intilishi kerak bo'lgan samolyot sifatida harakat qilishi kerak. Inson mehnatga qanday munosabatda bo'lishi, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni, g'alaba va mag'lubiyatlarni qanday qabul qilishi, uning hissiy holati va farovonligiga bog'liq bo'lib, bu ko'p jihatdan uning ishining samaradorligini shakllantirishga ta'sir qiladi. Kasbiy o'zini o'zi anglash oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishning shaxsiy regulyatori bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabr kungi Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasida "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazamiz" deb aytgan so'zlari ta'lim jarayoni ishtirokchilarining jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi rolini oshirish bilan bir qatorda ularning zimmasiga ulkan vazifalarni belgilab berdi.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar davlatimizning oldiga ta'lim tizimini rivojlantirish bilan bog'liq muhim masalalarni qo'ydi. Ushbu vazifalar yechimi sifatida kompetent yondashuvga asoslangan ta'lim standartlarining amaliyotga tadbiiq etilishi zamon talab etayotgan intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlashga qaratilgan bo'lsa, bevosita bu jarayon pedagog faoliyatiga ham izchil bog'liq sanalanadi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor

o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Psixologik, pedagogik va maxsus (mavzu bo'yicha) bilim zarur, lekin bular hech qachon kasbiy kompetentlik uchun yetarli emas. Ularning ko'pchiligi, xususan, nazariy, amaliy va uslubiy bilimlar intellektual va amaliy ko'nikma va malakalarning old shartidir. O'qituvchining kasbiy kompetentligining tuzilishi uning pedagogik mahorati orqali ochiladi, ular o'qituvchining eng xilma-xil harakatlarining kombinatsiyasi bo'lib, ular asosan pedagogik faoliyatning funksiyalari bilan bog'liq bo'lib, ko'p jihatdan o'qituvchining individual psixologik xususiyatlarini ochib beradi. Pedagogik faoliyat orqali o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlash har bir pedagogning muhim vazifalaridan biri desak ham bo'ladi, chunki dars o'tish jarayonida o'qituvchi pedagog tomonidan berilayotgan ma'lumotlarni o'zlashtirilishiga qarab ham pedagog o'quvchining qiziqishlarini, qobiliyatlarini bilib olishi mumkin. Pedagog misol uchun



talabaning dars jarayonidagi faoliyati, o'zlashtirishi orqali ham ko'p narsani biladi. Talabalarning har xil misol uchun dars jarayonida sust ishtirok etayotgan talabani boshqa sohaga qizigishi bo'lishi mumkin. Bunday jarayonda pedagog o'z qo'l ostida ta'lim olayotgan talabaning qiziqishlariga qarab yo'nalish ko'rsatishi kerak. Pedagog so'zini o'zini oladigon bo'lsak bola yetaklovchi to'g'ri yo'lga soluvchi degan ma'noni tushunamiz.

TADQIQOT NATIJASI

Qobilyat—insonning individual salohiyati va imkoniyatlaridir. Qobilyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobilyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobilyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobilyat anglashtiriladi. Qobilyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi.

Har qanday qobilyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobilyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim. Barcha qobilyat uchun tayanch xususiyat — kuzatuvchanlikda, ya'ni insonni fahmlash, ob'ektdan u yoki bu alomatlarni ko'ra bilish, ajrata olish ko'nikmasidir.

MUHOKAMA

Qobilyatning yetakchi xususiyatlaridan biri — narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir. U shaxsning shakllanishi va rivojlanishi natijasi bo'lishi bilan birga, tabiiy manbaga ham ega. Bu tabiiy manba ko'pincha zehn tushunchasi bilan yuritiladi. Zehn muayyan bir faoliyatga yoki ko'pgina narsalarga nisbatan ortiqcha qiziquvchanlikda, moyillikda, intilishda namoyon bo'ladi. Zehn nishonalari deganda qobilyat ichki imkoniyatlarning mohiyatini tushunish lozim. U ishtiyoq, moyillik, mehnatsevarlik, ishchanlik, talabchanlik kabilarning mahsulidir. Qobilyat umumiy va maxsus turkumlarga ajratiladi. Umumiy qobilyat deganda yuksak aqliy imkoniyat va taraqqiyot tushuniladi. Qobilyat tabiiy ravishda shakllanishi va muayyan reja asosida rivojlantirilishi mumkin.

Qobilyatni ma'lum faoliyatga moyillik yoki intilish orqali, tabiiy zehn nishonalari aniklash, mutaxassis rahbarligida uzluksiz faoliyatga jalb etish, qobilyatni takomillashtirishning maxsus vositalarini qo'llash, shaxsning faollik alomatlarini maksimal darajada rivojlantirish, inson shaxsiga alohida yondashuvni umumiy talablar bilan uyg'unlikda olib borish va boshqa orqali rivojlantirish yo'llari mavjud. Qobilyatning yuqori darajasi iste'dod va daholikda namoyon bo'ladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchi talabalar o'zlari ajrab chiqishadi. O'zlari ijtimoiy munosabatlarda o'z istedodlarini namoyon eta olmyotgan talablarining o'z qobiliyatlarini namoyon etyishlariga sharoit yaratib berishi, ko'p tomonlama qo'llab quvvatlashi kerak. Qobiliyatlar ikki xil bo'ladi; ya'ni ortirilganm kishi turmush faoliyati orqali ko'rgamn kechirganlari va ikkinchisi tug'ma bo'lishi nmumkun. Bunday insonlar sirasiga qo'shiqchilarning farzandlari, sportchilarni olishimiz mumkun. Bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarga

nisbatan shunday gap “qonida bor”, degan iboralar ham ishlatiladi. Sportchi, san`atkor, rassomlarni siz boshqa kasbga o`rgatishingiz mumkun ammo bu ularda shu sohaga nisbatan qobiliyati bor degani emas. Ma`alkali pedagog shunday tushunmovchiliklar kuzatilmasligi uchun qo`lidan kelganicha yoshlar bilan faoliyat olib borishi yoshlarimizning kelajagiga qo`yilgan yuksak bir qadam desak mubolag`a bo`lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibrohimjon, M. (2022). PSYCHOLOGICAL CRISES IN PERSONALITY PSYCHOLOGY AND WAYS TO OVERCOME THEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 743-746.
2. Yusupova Dilorom Sobirjonovna, ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE, EDUCATION AND TRAINING, DECEMBER, 2021-12/2 47-51
3. 4. https://www.researchgate.net/publication/359230881_OLIV_TALIMDAGI_PEDAGOGIK_FAOLIYATNING_OZIGA_XOSLIGI
4. Щербаков А.И., Мудрик А. В. Психология учителя // Возрастная педагогическая психология / Под ред. А.В. Петровского. Гл. IX. М., 1991.